

Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun


- I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Xorazm viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyatda 3 642 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda, shundan 661 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 18,1 %) Urganch shahriga, 420 tasi (11,5 %) Urganch tumaniga, 405 tasi (11,1 %) Xonqa tumaniga, 327 tasi (9,0 %) Qo'shko'pir tumaniga va 261 tasi (7,2 %) Xiva tumaniga to'g'ri keladi.

Viloyatda 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida 1 089 ta yangi sanoat korxonalari tashkil qilingan bo'lib, shularning 158 tasi Urganch shahriga, 139 tasi Xonqa tumaniga, 113 tasi Urganch tumaniga, 96 tasi Xiva tumaniga to'g'ri keladi.

Korxonalar soni
1-yanvar holatiga ko'ra



II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 34 276,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,4 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	34 276,1	108,4
Urganch shahri	4 957,9	110,3
Xiva shahri	549,8	109,3
tumanlar:		
Bog'ot tumani	802,4	112,2
Gurlan tumani	793,4	107,6
Qo'shko'pir tumani	945,2	112,2
Urganch tumani	1 778,0	109,3
Hazorasp tumani	775,1	107,8
Tuproqqal'a tumani	14 203,5	102,9
Xonqa tumani	1 319,9	107,8
Xiva tumani	758,1	112,2
Shovot tumani	1 137,9	106,3
Yangiariq tumani	909,7	106,5
Yangibozor tumani	1 157,8	113,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (232 015,0 ming so'm), Urganch shahrida (31 624,9 ming so'm) o'rtacha viloyat ko'rsatkichidan (16 713,5 ming so'm) sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija Yangibozor tumanida (111,7 %), Qo'shko'pir tumanida (110,3 %), Bog'ot tumanida (110,1 %), Xiva tumanida (110,0 %) va Urganch shahrida (108,6 %) qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-dekabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 33 047,1 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,4 % ni tashkil etgani holda, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 4,4 mlrd so'm (0,01 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 997,6 mlrd so'm (2,9 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 227,0 mlrd so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-dekabr oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 113 323,8 tonna paxta tolasi (2024-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 6,2 % ga ko'paygan), 88 903,3 tonna shakar (57,0 % ga kamaygan), 4 229,1 tonna o'simlik yog'i (48,1 % ga kamaygan), 43 906,3 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (23,4 % ga ko'paygan) hamda 93 681 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) (8,1 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar- dekabr*	2024-yil yanvar- dekabr*	2025-yil yanvar- dekabr
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	89 154	101 912	93 681
Maxsus yengil avtomobillar, dona	24 658	24 688	51 228
Paxta tolasi, t	94 536,5	110 518,9	113 323,8
Shakar, t	233 339,4	206 596,9	88 903,3
O'simlik yog'i, t	5 504,6	6 954,1	4 229,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	45 922,3	35 589,4	43 906,3
Paxta chigiti, t	155 289,3	175 429,0	175 458,6
Paxtadan yigirilgan ip, t	30 607,1	40 238,9	37 285,9

**2023-2024-yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,6 % (2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,8 % (2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,9 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,09 % ni (2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 0,08 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 39,2 % (39,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 6,1 % (5,8 %), quyi texnologiyali 51,0 % (51,2 %) ni tashkil etgan.




Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-dekabr oylarida

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 93 681 dona " Damas " (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,1 % ga kamaygan), 51 228 dona maxsus yengil avtomobillari (2,1 martaga oshgan) ishlab chiqarildi.



Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan
ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar, donada
yanvar-dekabr oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 86,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 112,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr*	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-dekabr
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	1 391,4	1 263,9	1 117,6
<i>shundan:</i>			
yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)	1 391,4	1 263,9	1 117,6
kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)	0	0	0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	123,2	111,1	125,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2024-yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 7,2 % ga ko'payganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 18,4 % ga kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 27,6 % ga oshganligi kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-dekabr*	2024-yil yanvar-dekabr*	2025-yil yanvar-dekabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	6 196 032,0	18 564 089,0	15 143 513,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, ming so'm	145 073 766,0	170 376 089,0	212 975 228,0

Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	21 661 338,0	44 140 187,0	54 653 972,0
---	--------------	--------------	--------------

**2023-2024-yillarning yanvar-dekabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 114,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,6 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 19,4 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Xorazm viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik



korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvlari ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvlari materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
U. Tadjimuratov
62 227-77-88 (9010)

Manzil:

